

ANBAR OTINNING PEDAGOGIK QARASHLARI

*Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va
adabiyoti universiteti talabasi
Suyunov Miraziz
mirazizsuyunov@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada mashhur ijodkor Anbar Otinnig falsafiy pedagogik qarashlari, yoshlarning tarbiyasi va uni rivoji borasidagi pedagogik fikrlari tahlilga tortiladi. Shuningdek sharq allomalarining falsafiy pedagogik qarashlarining umumiyliqi haqida so'z boradi.

Abstract: This article analyzes the philosophical pedagogical views of the famous artist Anbar Otin on the education and development of young people.

Kalit so'zlar: falsafa, pedagogika, o'spirin yosh, funksional, misra.

Keywords: philosophy, pedagogy, adolescence, functional, verse

Ma'limki, har bir ijodkor o'z ijod namunalarida yoshlar tarbiyasi va uning komil inson bo'lishi uchun turli fikrlar bildirib kelgan. Shunday ijodkorlar sirasiga mashhur adib Anbar Otin hisoblanadi. O'zining g'azallari orqali pand nasihat ruhi ustunlik qilishi bilan ajralib turadi. Ushbu maqolamizda milodiy 1870-1915 yillarda ijod qilgan Qo'qon adabiy muhiti namoyondasi Anbar Otinning pedagogik fikrlariga to'xtalamiz. Ijodkor o'z to'rtliklarida shunday keltiradi:

Manga xalq ro'zg'ori bo'ldi ustoz,
Ha ma'murlar yaratg'on ro'zi ma'mur.
Murodingni hayotingni ichidan axtar
Ki, mavhum ilm ichinda bo'lma axgar.

Ushbu to'rtlikda ijodkor yoshlarga o'zining hayoti orqali kechinmalarini yetkazmoqda. To'rtlikni shunday tushunsak bo'ladi, menga shu xalqning ro'zg'ori bo'ldi ustoz, har bir ishda ustozim shu jamiyat bo'ldi. Men o'z maqsadimni shu hayotimdan axtardim sen hech qachon g'aflatda qolmagin. Bunda asosiy maqsad yoshlar kelajagini yo'lga qo'ya olishi, ijodkorga mana ro'zg'or ustoz bo'ldi mana shu hayot senga ham ustoz bo'ladi deya murojaat qiladi. Anbar Otin har bir ijod namunalarida falsafiylik va pedagogik qarashlar ustun hisoblanadi. Ushbu davrda ta'lim-tarbiya, inson munosabatlarining falsafiy asoslari mumtoz adabiyotda ochib beriladi. Sharq pedagogikasi ko'pchilik olimlarning sharq mutaffakirlari ijodida tarbiya, shaxs ma'naviy kamolotiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarning pedagogika fani rivojida muhim o'rni bor. Lekin zamonaviy va g'arb pedagogikasi allomalar merosida ilgari surilgan ta'lim-tarbiya masalalarini yoritishda milliylik tamoyilidan

kelib chiqib yondashmadilar. Aslida, Markaziy Osiyo allomalarining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarida ma'naviy qadriyatlarga bo'lgan e'tibor asosiy o'rinda turadiki, bu bevosita inson kamolotining shakllantirishiga omil bo'la oladigan hodisadir. Sharq mutafakkirlarining ma'naviy madaniy sohaga qo'shgan ulushlari nihoyatda boy bo'lib, mazmunan qadriyatlarning barcha yo'nalishlarini qamrab olganligi bilan xarakterlanarlidir. Ular:

- Aqliy madaniyatni shakllantirish bilan bog'langan qadriyatlar;
- Ma'naviy – ruhiy qadriyatlar;
- Ijtimoiy-siyosiy qarashlar;
- Badiiy-nafis qadriyatlar
- Diniy qadriyatlar tarzida o'z ifodasini topgan.

Shu o'rinda Anbar Otin va Farobiy qarashlari o'xshashligini bildirib o'tmoqchimiz. Chunki, Farobiy pedagogic qarashlarini ta'lim-tarbiya haqidagi ta'limotini o'rganishida inson xislatlari to'g'risidagi falsafiy fikrlar nihoatda muhim ahamiyat kasb etadi. Farobiy o'zining falsafiy qarashlarida odamlarning tuzilishini, ruhiyatini, madaniy va ma'naviy olamini o'rganishga ahamiyat beradi. Uning ta'limotida, inson barcha boshqa jismlarda bo'lmagan qobiliyat va kuchga, ruhiy quvvatga, aql va so'zlash qobiliyatiga egaligi bu kuch uni tabiatdagi boshqa jismlardan ajralib turishi va uning ustidan hokim bo'lish imkoniyati berilganligi namoyon bo'ladi. Anbar Otinning falsafiy qarashlarida ham inson o'zligini topish, insonning ichki kechmishlari, nafs bilan tinimsiz kurashib borish, inson bo'lish kabi yuksak insoniy fazilat yotadi.

Kimki ma'rifatni etsa e'zoz,
Ani irfon etar albatta mumtoz,
O'zingni elga xizmatkor etkiz,
Ishing anjomiga yetkuncha etkiz.¹

Ma'rifat insonning rivoji va aqliy faoliyatining eng muhim jihati hisoblanadi. Keltirilgan to'rtlikda ham ana shunday maqsad ilgari surilgan. Kimki, ma'rifatni e'zozlab unga borini bersa, uning hayoti yaxshilanadi. Ijodkor aynan ma'rifat ilm-u urfon insoning e'zoziga sabab bo'ladi shuningdek, inson xizmatkor bo'lishi muhim ekanligini isbotlaydi. Bu bilan mohir pedagog e'tibor berishi muhim jihatlarini o'z ijodi orqali ifodalaydi. Anbar Otin aynan insonning kamoli uning ma'rifati ekanligini, ma'rifatli inson el xizmati bo'lishi lozimligini bildiradi. Ushbu qarashlarni kuzatar ekanmiz quyidagi mahoratlarni yuzaga chiqarish uchun xizmat qiladi. Pedagogik qobiliyatga ega bo'lish muloqatga moyillik, ixchamlik, kelajakni tasavvur qila olish, kasbiy mustaqillikni tasavvur

¹ Anbar Otin "She'rlar risolasi"-Toshkent;-1970, 72-bet.

qilishdan iborat². Shunday xususiyatlar aynan Anbar Otin ijodida uchraydi ya'ni yoshlarda fikrlash va tasavvur qilish qobiliyatini kengaytiradi.

Ey qizim, Mo'minxo'jam ahvolidin voqif bo'lib,

Boxabar bo'l, har yomon yerga yurib, ta'sir qilib,

Chiqmasin to'g'ri yo'lidan daydilarga qo'shilib.

Aytkil Akbarxo'jaga yo'l bermasun ta'qib qilib.

Tarbiyaviy faoliyatning shunday shakllari bor ekanki, ular shaxsning estetik voqelikka munosabatini rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi³. Aynan shu jihat Anbar Otinning yuqoridagi parjadan ko'rishimiz mumkin unda adib o'z qizining kelajagini kimlardan ogoh bo'lishi lozimligini voqeliklar orqali ifodalaydi. Mutafakkirlarning pedagogik qarashlari aql va ilmning yuksak darajadagi ulug'lanishi insonni ulug'lash bilan chambarchas bog'lanadi. Anbar Otin ijodini salmoqli qismi yoshlarga kelajak avlodga o'z she'rlari orqali estetik voqelikni anglab yetish, ma'rifatli bo'lish lozimligini uqtiradi. G'azallarida falsafiylik va chuqur o'yga toldiruvchi jumboqli holatlarni kuzatishimiz mumkin. Adibning mohir pedagogik jihatlaridan biri hisoblanadi. Bosh g'oya asosan ilmga undov, tarbiya odoblari, ma'rifatli bo'lish singari g'oyalarni ifodalashga harakat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Anbar Otin "She'rlar risolasi"-Toshkent;-1970, 72-bet
2. Xodjayev.B. Umumiy pedagogika nazariyasi va amlioyoti-Sharq,Toshkent;-2017-312-bet
3. Abdullayeva .Sh,Xolmamatova. L Pedagogika-Toshkent;-2005-52-bet
4. Khaydarov, S.A.(2021). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country, International scientific and paractical confrence . CUTTING EDGE-SCIENCE. In Conference Proceedings(pp.41-43)
5. Narmatov, D, Haydarov.S Tarix fanini o'qitishda Ispaniya XV-XVII asrlardagi tarixi.2021-41-bet
6. Abu Nasr Farobiy . "Fozil odamlar shahri " Abdulla Qodiriy nashriyoti. T.:1993-yil

² Xodjayev.B. Umumiy pedagogika nazariyasi va amlioyoti-Sharq,Toshkent;-2017-312-bet.

³ Abdullayeva .Sh,Xolmamatova. L Pedagogika-Toshkent;-2005-52-bet